

## ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING HAYOTIY KO'NIKMALARINI GEYMIFIKATSIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI.

Bobir Tojiboyev

Namangan davlat pedagogika instituti

Filologiya kefedrasi o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Email: [boburjontojiboyev6998@gmail.com](mailto:boburjontojiboyev6998@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21934208>

Annotatsiya. Maqolada adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning funksional hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda adabiyot fanining imkoniyatlari, geymifikatsiyaga asoslangan ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan va integrativ yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Montessori, Reggio Emilia, HighScope va Waldorf o'quv dasturlarining hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinib, milliy o'quv dasturi mazmuni bilan qiyosiy baholangan. Muallif adabiy ta'lim orqali o'quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlash, muloqot, hamkorlik, muammolarni hal etish hamda hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, o'quv dasturlarini zamonaviy ijtimoiy muammolarni hisobga olgan holda takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Funksional hayotiy ko'nikmalar, adabiy ta'lim, o'quv dasturi, geymifikatsiya, adabiy kompetensiya, Milliy o'quv dasturi, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, integrativ yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, hayotiy vaziyat, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, o'quvchi.

Аннотация. В данной статье с научно-методической точки зрения рассматривается проблема формирования функциональных жизненных навыков учащихся в процессе литературного образования. Обосновано значение жизненных навыков для социализации личности, развития самостоятельного мышления, культуры общения, умения решать проблемы и принимать правильные решения в различных жизненных ситуациях. В исследовании проанализированы возможности игровых (геймификационных) образовательных технологий, а также международных образовательных программ Montessori, Reggio Emilia, HighScope и Waldorf в развитии жизненных навыков обучающихся. Освещена роль содержания предмета «Литература» и учебных программ в формировании креативного и критического мышления, коммуникативной компетентности, сотрудничества, ответственности, инициативности и социально-эмоциональных навыков учащихся. Проведена оценка подходов к развитию жизненных навыков, представленных в Национальной учебной программе, выявлены существующие недостатки и предложены пути их устранения. В частности, разработаны научно-практические рекомендации по интеграции содержания литературных текстов с современными социальными проблемами, ориентации вопросов и заданий на реальные жизненные ситуации, а также усилению практической направленности литературного образования.

Ключевые слова: Функциональные жизненные навыки, литературное образование, учебная программа, геймификация, литературная компетенция, Национальная учебная программа, креативное мышление, критическое мышление, коммуникативная компетентность, интегративный подход, личностно-ориентированное обучение, жизненные ситуации, социально-эмоциональное развитие, учащийся.

Abstract. This article examines the development of students' functional life skills in the process of literature education from a scientific and methodological perspective. It substantiates the importance of life skills for students' socialization, independent thinking, communication culture, problem-solving abilities, and informed decision-making in real-life situations. The study analyzes the potential of gamification-based teaching technologies as well as the international educational approaches of Montessori, Reggio Emilia, HighScope, and Waldorf in fostering life skills. It also highlights the role of literature curricula in developing creativity, critical thinking, communicative competence, collaboration, responsibility, initiative, and socio-emotional skills. Furthermore, the article evaluates the approaches to life skills development reflected in the National Curriculum, identifies existing shortcomings, and proposes ways to improve them. In particular, it offers practical recommendations for integrating literary texts with contemporary social issues, designing learning tasks based on real-life contexts, and strengthening the

practical orientation of literature education to enhance students' readiness for successful participation in modern society.

Keywords: Functional life skills, literature education, curriculum, gamification, literary competence, National Curriculum, creative thinking, critical thinking, communicative competence, integrated approach, learner-centered education, real-life situations, socio-emotional development, student.

Funksional hayot ko'nikmalari insonga baxtli va qoniqarli hayot kechirishga yordam berish maqsadiga qaratilgani bilan bugungi kunda dolzarbdir. Bunday ko'nikmalar oila va jamoada xotirjam yashash va muloqot qilish sharoitini kengaytiradi. Funksional hayot ko'nikmalari odatda karyeraga erishish va uni saqlab qolish uchun zarur sanaladi. Masalan, ishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, professional kiyinishni o'rganish va yashash xarajatlarini hisoblash – bularning barchasi keng tarqalgan amaliy hayotiy ko'nikmalarga misollardir. Biroq, ish ko'nikmalari hayotning maktabda o'rgatilishi mumkin bo'lgan yagona jihati emas.

Hayotiy ko'nikmalar o'quvchilarning jamiyatda to'g'ri yoki noto'g'ri, yaxshi yoki yomon, muhim yoki ahamiyatsiz deb hisoblagan fikrlarni shakllantirishga ham hissa qo'shadi. Muhim sanalgan turli xil hayotiy ko'nikmalarga diqqat qilish va o'zini boshqarish, hamkorlik, qiyinchiliklarga munosabatini bildirish va tashabbus kabilar xos. Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarda o'z-o'zini hurmat qilish, bezorilik va xurofot kabi hayotdagi muhim o'zgarishlar va qiyinchiliklarni boshqarishga yordamlashadi. Bu ularga maktabda, jamoa yoki umuman jamiyatda o'z fikrini bildirishga imkon beradi. Shuningdek, o'z huquqlarini talab qilish va majburiyatlarini tan olish uchun zarur bo'lgan bilim va tajribani taqdim etish orqali ularni qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi.

O'quvchilar hayotiy ko'nikmalarni o'zlashtirganda faollashadi, o'zlari va jamoalari uchun mas'uliyatni zimmlariga olishga qodir bo'ladilar. Hayotiy ko'nikmalar rivoji sog'lom jamiyat taraqqiyoti uchun mas'ullikni his etadigan, o'z huquq va majburiyatlarini hurmat qiladigan, o'zgalarning xotirjamligi va farovonligi uchun qayg'uradigan, fikrlarini dalillar bilan aniq ifodalaydigan fuqarolarga har tomonlama bog'liq. Bu ko'nikmalar o'z-o'zidan rivojlanmaydi, ularni o'zlashtirish yo'llarini tanlash lozim. Ba'zi hayotiy ko'nikmalar uyda yoki ishda kundalik tajribalar orqali rivojlantirilishi mumkin bo'lsa-da, ular odamlarni bugungi dinamik va xilma-xil jamiyatda o'ynashlari kutilgan faol rollarga tayyorlash uchun yetarli emas. Bunda adabiy ta'lim jarayonida o'quv dasturlarining ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz.

Adabiyotdan o'quv dasturlari hayotiy ko'nikmalar rivojiga ijobiy va jiddiy ta'sir ko'rsatadigan me'yoriy hujjat bo'lib, texnik ko'nikmalardan ko'proq narsalarni taklif etadi. Ular o'quvchilarni tez rivojlanayotgan dunyoda muvaffaqiyatga erishishga tayyor, novator va o'ziga ishongan shaxslarga aylanirishga xizmat qiladi. Adabiyot darslarida geymifikatsiya elementlari singdirilgan o'quv dasturlari imkoniyatlaridan o'z o'rnida foydalanish kreativlik va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlaydi. O'quvchilar adabiyotni hayotga yo'llovchi vosita sifatida o'z biznesini tashkil qilish, kuchli san'at portfelini yaratish yoki adabiy hamjamiyatga mazmunli hissa qo'shishni maqsad qilganlaridan qat'i nazar, o'quv dasturlari professional va shaxsiy muvaffaqiyat uchun zamin yaratadi.

Kuzatishlarimizda jahon ta'lim tizimida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishning tizimli usullari sifatida o'quv dasturlari tilga olinadi. Ularda quyidagi ta'lim falsafalari va o'qitish amaliyotiga asoslangani ayonlashdi:

1. *Montessori o'quv dasturi*. Ushbu dasturda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan va o'z-o'zini boshqarishga qaratilgan ta'limga urg'u beriladi. O'quvchilar amaliy materiallar bilan ishlash orqali diqqatini jamlash qobiliyatini rivojlantiradilar. O'qituvchilar mazkur jarayonda ma'ruzachi emas, balki fasilitatorlardir, chunki ular kashfiyot qilish, muammolarni topish va estetik rivojlanishga foyda keltiradigan tayyor muhit yaratadilar. Dastur qiziqish, innovatsiya va butun hayot davomida o'rganishni rag'batlantiradi, erkinlik va individual ta'limni targ'ib qilish orqali muayyan xulq-atvorni tarkib toptiradi.

2. *Reggio Emilia o'quv dasturi* tajribaga va loyihaga asoslangan o'qitishdir. Bunda o'quv dasturi va o'quv jarayoni ta'lim subyektlari ishtirokini o'z ichiga olgan holda ularning faol ishtirokiga asoslanadi. Ushbu dastur o'quvchilarni ijobiy o'quv muhiti orqali tadqiqot, muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ishga solishni talab etadi.

3. *HighScope o'quv dasturida* hamkorlikdagi ta'limga katta e'tibor berilgan. O'quvchilarning kundalik mashg'ulotlari rejalashtirilgan bo'lib, ular mustaqil bo'lish, muammolarni hal etish va qaror qabul qilishga undash uchun bajariladi. Bunda dars jadvallari, kuzatish va baholash turlaridan foydalaniladi. O'qituvchi jarayonda vositachi sifatida ishtirok etib, o'zaro ta'sir va fikrlashni rivojlantiradi. Dastur real

hayot tajribalari va [amaliy bilimlarga](#) asoslangan kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanish maqsadiga qaratilgan.

4. *Waldorf ta'lim o'quv dasturi.* Waldorf falsafasi o'quvchilarning intellektual, badiiy va amaliy rivojlanishini o'z ichiga olib, ularni kompleks rivojlantirishni nazarda tutadi. Ijodiy o'rganish tasavvur, hikoya qilish, musiqa va san'atdan foydalanadigan [tajribalarni](#) anglatadi. O'quv dasturi xronologik va yoshga qarab baholanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan mustahkam aloqa o'rnatishni nazarda tutadi, bu esa ularni qiziquvchan, o'zlarini erkin ifodalash, do'stona va qulay muhitda axloqiy-estetik rivojlanishiga yordamlashadi.

Geymifikatsiyaga asoslangan hayotiy ko'nikmalar kognitiv rivojlantirishni ifodalab, o'quvchida mustaqil fikrlashni shakllantirish, g'oyalarni tushunish va sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish uchun yetarlicha mulohaza yuritish imkonini beradi. Adabiyot darslarida geymifikatsiya o'quvchilarga so'z boyligi, grammatika va tilni tushunishga xizmat qiladi. Ular og'zaki va yozma til ko'nikmalarini hikoya qilish, munozaralar, qo'shiqlar va o'qish mashg'ulotlari orqali rivojlantiradilar. Til qobiliyatlari yaxshi muloqot o'rnatish, o'qishga tayyorgarlik ko'rish, fikr va his-tuyg'ularni ifodalashni ta'minlaydi. Bu esa shaxslararo ko'nikmalar rivojida juda muhimdir.

O'quv dasturlarida ko'zda tutilgan adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o'quvchilar tengdoshlari va o'qituvchilari bilan dialoglar qurish, bahslar uyushtirish, tinglash, gapirish va og'zaki bo'lgan muloqot usullarini egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Fikrlarni to'g'ri ifodalashga ishonchni oshiradigan mashg'ulotlar guruh ishi, rol o'ynash va taqdimotlar hisoblanadi. O'quvchilarning fikrlarini to'g'ri bayon etishi, hamkorlikda ishlash kabi ijobiy munosabatlarni o'rnatishga olib keladi. Savodxonlik, hisoblash va ijtimoiy ko'nikmalar dunyosidagi asosiy tushunchalar bilan tanishtirish o'quvchilarni hayotga tayyorlashi nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. O'quv faoliyatiga jalb qilish ularni maktab sharoitiga moslashish, ko'rsatmalarga bo'ysunishga individual tarzda odatlantiradi.

Ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rag'batlantiruvchi o'quv dasturiga asoslangan mashg'ulotlar san'at, musiqa, dramatik o'yinlarni oqilona qo'llashni o'zida mujassam etadi. Ijodiy tajribalar kognitiv moslashuvchanlikni, hissiy ifodani va odatiy bo'lgan fikrlashni rivojlantiradi, bu esa umumiy rivojlanish va umrbod o'rganishda foydalidir. Ijtimoiy rivojlanishda hamkorlik, o'zaro fikr almashish, hamdardlik va jamoaviy ishlar ajralib turadi. Guruh faoliyati, tengdoshlar bilan muloqot va hamkorlik o'quvchilarga jamiyat qoidalarini o'rganish va munosabatlar o'rnatishga qo'l keladi. Ijtimoiy rivojlanish o'ziga ishonch va boshqa shaxslar bilan ijobiy aloqa o'rnatish qobiliyatini oshiradi, bu esa shaxsning jamiyatda muvaffaqiyat qozonishi va farovon turmush tarzini yaratish va amal qilishga asos yaratadi.

Faol izlanish, [shaxsga yo'naltirilgan ta'lim](#), kognitiv, ijtimoiy va hissiy muvozanatni qo'llab-quvvatlaydigan o'quv jarayonida o'quvchilarning yaxlit rivojlanishi amalga oshadi. Bunda quyidagilar ajralib turadi:

1. Geymifikatsiyaga asoslangan o'rganish o'quvchilarni mazmunli o'yinlardan foydalangan holda tadqiqotchi, tajriba o'tkazuvchi va muammolarni hal qiluvchi rolini ijro etish asosida hayotga tayyorlash vazifalari amalga oshadi. Bu kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishni kuchaytiradi hamda mavzuga qiziqishni oshiradi va tasavvurni rivojlantiradi. O'yinga asoslangan o'rganish orqali bolalar tanqidiy fikrlashni, narsa-hodisalarni tabiiy holda kuzatishlari, interaktiv muhitda o'ziga ishonchni shakllantirishi mumkin.

2. Integrativ yondashuv kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishni muvofiqlashtiradi. Butun tajribalar mavzuviy yoki [loyihaga asoslangan o'rganish mashqlari](#) shaklida bo'ladi. O'qitish nafaqat mavzular o'rtasida mazmunli munosabatlarni shakllantiradi, balki bilimlarni real hayotda qo'llash, yaxlit tushunishga erishishni ta'minlaydi. Bu o'rganishni o'zaro bog'liq, dolzarb va samarali qiladilar.

3. Inklyuziv va moslashuvchan o'quv dasturlari. Moslashuvchan o'quv dasturi o'quvchilarning ehtiyojlari, qobiliyatlari va kelib chiqishini hisobga oladi. U ishtirok etishga asoslangan, maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab oluvchi va madaniy xilma-xillikni o'z ichiga oladi. Har bir o'quvchining individual o'qishi, optimal rivojlanishini yaxshilashdan tashqari, tegishlilik, tenglik va ijtimoiy-emotsional o'rganishni ham osonlashtiradi.

4. Faoliyatga asoslangan o'rganish jarayonida o'quvchilar o'rganishni amalda ishlash orqali o'zlashtiradilar. Badiiy asarlar, san'at, musiqa va harakat uyg'unligidagi ish turlari bolalar ishtirokida yanada faollashadi. Bu nafaqat o'quvchining bilish qobiliyati, xotirasi, muammolarni yechish va amaliy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki o'rganish jarayonini yoqimli, mazmunli va samarali qiladi hamda umumiy rivojlanishi va ijodkorligiga ta'sir qiladi.

5. Muvozanatli baholash. Bu o‘quvchilarning o‘rganishi va rivojlanishini doimiy kuzatish orqali qayd etish va miqdoriy baholashni o‘z ichiga oladi. U o‘quvchining umumiy rivojlanganlik darajasi bo‘yicha dinamikani kuzatib borish, ko‘rsatmalardan xabardor qilish va talablarga javob berish uchun summativ va shakllantiruvchi baholashlarni birlashtiradi. Akademik rivojlanishdan farqli o‘laroq, masalaga yaxlit yondashishga urg‘u berish orqali u o‘qituvchilarga konstruktiv fikr-mulohazalar bildirish, o‘ziga ishonch va umrbod o‘rganish ko‘nikmalariga e‘tibor qilishni ko‘zda tutadi.

6. Individual yondashuv. Adabiy ta‘limda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda ish ko‘rish o‘rinlidir. Mazkur yondashuv o‘quvchilarni kelgusi hayotda o‘quv-biluv jarayonini tabaqalashtirishga zamin hozirlaydi, bunda o‘quvchi va jamiyat talablari e‘tibor markazida turadi. Tabaqalashtirilgan topshiriqlar, mustaqil o‘zlashtirilgan va idrok etilgan bilimlar orqali o‘quvchilar o‘quv faoliyatiga ijodiy yondashadilar. Tadqiqotchi F.Yusupovning qayd etishicha, “Individula o‘qitish bilimlarni yaxshi o‘zlashtirmaydigan o‘quvchiga o‘qituvchining yangi vazifasi oldidagi qo‘rquvni yengish, doimiy ravishda o‘zlashtirgan va o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan bilimlar doirasiga murojaat qilish imkonini beradi. Individual yondashish jarayonida o‘quvchini qiynaydigan narsalarga katta e‘tibor bilan qarash kerak, chunki o‘quvchining bilmasligi faqat uning aybi emas, ko‘pincha, bu o‘qituvchiga ham bog‘liq”.

Adabiy ta‘lim o‘quvchilarning dinamik va xilma-xil dunyoda ijtimoiy-shaxsiy jihatdan muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradigan puxta o‘quv dasturlariga muhtoj. Biz tajriba-sinov ishlari davomida adabiyotdan o‘quv dasturlari mazmuniga e‘tibor berib, ularda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish yoki bilim olishga qiziqtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni tahlil qildik. Unga ko‘ra, loyiha sifatida e‘lon qilingan adabiyotdan “Milliy o‘quv dasturi”ning “Umumiy o‘rta ta‘limda adabiyot fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasi”da masalaga quyidagicha yondashilgan:

“adabiyot predmetining boshqa umumta‘lim fanlari bilan integratsiyasi orqali o‘quvchilarni hayotning turli holatlariga tayyorlash imkoniyatini oshirish; adabiyot o‘quv fanining mazmuni o‘quvchilar o‘z hayotida qo‘llashlarini hisobga olib belgilanishiga erishish; adabiyot o‘qitishning barcha bosqichlarida o‘quvchilarda hayotning har bir hodisasi hamda odamlarning har bir xatti-harakatiga mustaqil va asosli baho bera olish ko‘nikmasini shakllantirish”

Yuqoridagi fikrlardan ayonlashadiki, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda milliy va ta‘lim tizimi rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayanilgan, adabiyot o‘qitish mazmunini yangilash hamda xalqimizga xos milliy xususiyatlardan bu borada o‘rinli foydalanish yo‘llari belgilangan. Dasturning “Adabiy ta‘lim asoslari” bandida adabiyot o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadga erishishda “o‘qilgan badiiy asarni tushunish, undan hayotiy xulosalar chiqarish, badiiy asar o‘qishni hayotiy ehtiyoj hisoblash tuyg‘ularini tarbiyalash” muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgani ham bejiz emas. Bu amalda aynan shu jihatlarni ko‘zda turib ish ko‘rishni taqozo etadi.

“Adabiyot o‘qitishdagi mavjud muammolar” bandi tahlil qilinganda, mazmun-mundarija, metodik va kadrlar bilan bog‘liq muammolar tilga olinadi, lekin egallangan bilimlarni amalga tatbiq etish bilan bog‘liq masalalar yetarlicha yoritilmagani ham ko‘zga tashlanadi.

Adabiyot o‘quv fanidan rivojlantiriladigan adabiy kompetensiyalar “AK5: asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi” tarzidagi talabdan boshqalari faqat bilimlarini badiiy asarlar tahliliga qo‘llashni nazarda tutadi. Bunda asosiy e‘tibor asardan topish, munosabat bildirish, tushuntirish, tahlil qilish usullariga qaratilganini ta‘kidlash joiz.

Hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, bizningcha, faqat mavzu doirasida muayyan bilimlarni va sifatlarnigina tarkib toptirish emas. Bunda aynan bola hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan turli muammolarga yondashish masalasi ham mavjud. Jumladan, bugungi kunda yoshlar o‘rtasida keng tarqalayotgan giyohvand moddalar, tabletkalar (“Vello” kabi til tagiga qo‘yib shimadigan modda), elektron sigaretlarga ruju qo‘yish, OITS, erta homiladorlik, buzg‘unchilik g‘oyalariga berilish oqibatida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarining oldini olish masalasi ham kun tartibida turadi. Bu muammoga yechim topish yo‘llari ham juda dolzarbdir. O‘quv dasturlariga aynan shunday muammolar aks etgan adabiy matnlarni kiritish yoki darsliklarda qo‘yilayotgan savol-topshiriqlarni hayot bilan bog‘lashga yo‘naltiradigan yo‘sinda tuzish orqali ham muayyan natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев К. Алишер Навоий ижодини ўргатиш жараёнида фанларaro интеграциядан фойдаланиш. –Тошкент: Нодирабегим, 2021. –110 б.

2. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 1-qism. Q.Yoʻldoshev va boshq. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 88 b.
3. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 2-qism. Q.Yoʻldoshev va boshq. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 128 b.
4. Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika taʼlim markazi, 2022. – 224 b.
5. Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 224 б.